

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori boshchiligidagi delegatsiyaning Koreya Respublikasiga tashrifi natijalari

Joriy yilning 6-9 may kunlari, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori Olimjon To'ychiyev boshchiligidagi delegatsiya Koreya Respublikasiga xizmat safarini amalga oshirdi.

Xizmat safarining ilk kunida *Seoul Digital Foundation* prezidenti Yosik Kang bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda raqamlashtirish sohasida sun'iy intellektni joriy qilishda ilmiy tadqiqot olib borish, talaba yoshlarning mazkur sohaga oid startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda AKT sohasida aholini bilim va ko'nikmalarini oshirish borasida hamkorlik qilish masalalari muhokama etildi.

Natijada, joriy yilning 10-12-oktabr kunlari aqli shahar, sun'iy intellekt va robototexnika sohasida faoliyat olib boruvchi dunyoning 230 dan ortiq tashkilotlari tomonidan 20 mingga yaqin mutaxassislar, olimlar hamda talabalar ishtirok etishi rejlashtirilgan Seoul Digital Foundation tomonidan tashkil etiladigan Seoul Smart Life Week tadbirida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari o'z ishlanmalari bilan ishtirok etishlari bo'yicha kelishuvga erishildi.






Shuningdek, Koreya Dasturiy Sanoat Assotsiatsiyasi (Korea Software Industry Association) raisi o'rribbosari Kim Don Chol bilan muzokaralar o'tkazildi. Uchrashuvda IT korxonalar


talablaridan kelib chiqib TTPUning IT yo'nalishidagi o'quv dasturlarini takomillashtirish va TTPU talabalari o'qishni bitirishiga qadar Assotsiatsiyaning "Xalqaro IT Sertifikat"ni olish masalalari muhokama etildi.

Xizmat safarining **ikkinci** kunida delegatsiya a'zolari "Korea Dron Sanoati Assotsiatsiyasi" raisi Chon Min Pak, "Skyports" korxonasi bosh direktori Hyuk Pak, "Jin-Air korxonasi" rahbari Sun Jin Kin hamda "Accesswe UAV system korxonasi" ijro etuvchi direktori Jun Bom Lee bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuv doirasida bugungi kunda O'zbekistonda dronlarga bo'lgan katta ehtiyoj yo'nalishlari, ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini transfer qilish va dasturiy ta'minot ishlab chiqish masalalari muhokama etildi. Uchrashuv yakunida, "Korea Dron Sanoati Assotsiatsiyasi", "Skyports", "Jin-Air", "Accesswe UAV system" korxonalari hamda TTPU o'rtaida hamkorlik memorandumi imzolandi.













Shuningdek delegatsiya a'zolari "BizData" korxonasining ijro etuvchi direktori Teyjin Kim bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda katta hajmdagi ma'lumotlar (BigData) orqali avtomobilsozlik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi hamda tabiiy resurslarni tejash bo'yicha innovatsion loyihalarni amalga oshirish va TTPU talabalarining yozgi amaliyotini o'tash masalalari muhokama etildi.

Natijada BizData va TTPU o'rtasida ishlab chiqarish korxonalari uchun suvni qayta ishlash texnologiyalarini transfer qilish va AI bo'yicha muhandislarni tayyorlash hamda talabalar yozgi amaliyotini o'tash bo'yicha hamkorlik memorandumi imzolandi.



MOU for COOPERATION ON THE SMART WATER INDUSTRY INITIATIVE IN UZBEKISTAN

DATE May 7th, 2024 (Tue) at 6:00 PM

Location The conference room on the second floor of E







Kunning ikkinchi yarmida Koreya Xalqaro Sanoat Hamkorlik Instituti direktori Chon Ok Re bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuv doirasida bugungi kunda sanoat korxonalarning kadrlarga bo'lgan talabi bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ishga tushirish, IT sohasida kadrlarni tayyorlash borasida Janubiy Koreya ilg'or tajribasini joriy etish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari muhokama etildi.

Uchrashuv natijasiga ko'ra, Koreya Xalqaro Sanoat Hamkorlik instituti bilan TPPU keyingi o'quv yilidan boshlab dasturlash, sun'iy intellekt, IT muhandisligi, mobil ilovalarni dasturlash hamda mediadizayn yo'nalishlari bo'yicha birgalikda ta'lim dasturlarini amalga oshirish bo'yicha kelishuv imzolandi.

Xizmat safarining **uchinchini** kunida Yeungnam universiteti Prezidenti Choi Oe-chool bilan Janubiy Koreya tajribasi asosida TPPUda IT muhandisligi yo'nalishlarida kadrlarni

tayyorlashda 2+2 modeli asosida hamkorlikni yo'lga qo'yish, professor o'qituvchilar va talabalar almashinuvini amalga oshirish bo'yicha muzokaralar o'tkazildi.

Natijada bakalavr talabalar uchun ikki yil TTPUda keyingi ikki yilni Yeungnam universitetida davom ettirish imkoniyatini yaratish orqali qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil qilish, IT muhandisligi sohasida sanoat korxonalarining aniq ehtiyojlaridan kelib chiqib malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni Janubiy Koreyaning yirik IT korxonalarida amaliyotini ta'minlash, ikkala universitetlarning o'zaro almashinuvini tashkil qilish bo'yicha kelishuv imzolandi.







Xizmat safarining **to'rtinchi** kunida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Janubiy Koreyaning avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan Ajin Industrial Co. kompaniyasiga tashrif buyurildi va kompaniyaning faoliyati bilan yaqindan tanishildi. Kompaniyaning ijro etuvchi direktori Sea Junho bilan TTPU talabalarini amaliyot o'tashlari va qo'shma ta'lif dasturlari bitiruvchilarini mazkur korxonada ishlash istiqbollari muhokama etildi.

Shuningdek, delegatsiya a'zolari Kyonbuk texnoparki huzurida tashkil etilgan Elektromobil Akkumulyatorlarini Qayta Ishlash R&D Markazi va Kelajak Avtomobillar Markazi faoliyatları bilan yaqindan tanishdilar.

Muzokaralar natijasida TTPUda Elektromobil Akkumulyatorlarini Qayta Ishlash R&D Markazini Kyonbuk Texnoparki bilan hamkorlikda Koreya grant mablag'lari asosida tashkil etish va

ushbu yo'nalishda TTPU izlanuvchilarini Koreya Respublikasiga qisqa muddatli ilmiy stajirovkaga yuborishga kelishib olindi.

Shu bilan TTPU rektori Olimjon To'ychiyev boshchiligidagi delegatsiya Koreya Respublikasiga xizmat safarini yakunlab 10-may Toshkent shahriga yetib keldi